



Subtext and its linguistic features

Sanobar JONRIDOVA¹

Kokand State Pedagogical Institute

ARTICLE INFO

Article history:

Received June 2024
Received in revised form
10 July 2024
Accepted 25 July 2024
Available online
25 August 2024

Keywords:

meaning,
implication,
communicative,
presupposition,
hidden meaning,
proposition,
phonopragmatic.

ABSTRACT

The nature of subtext, its uniqueness, and its types were considered in the article. Its general and individual characteristics were determined.

2181-3701/© 2024 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-3701-vol2-iss2/S-pp279-284>

This is an open-access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

Tagma'no va uning lingvistik xususiyatlari

Kalit so'zlar:

tagma'no,
implikatsiya,
kommunikativ,
presuppozitsiya,
yashirin ma'no,
propozitsiya,
fonopragmatik.

ANNOTATSIYA

Maqolada tagma'noning tabiati, uning o'ziga xosligi, turlari ko'rib chiqildi. Uning umumiy va individual xususiyatlari aniqlandi.

Подтекст и его языковые особенности

Ключевые слова:

смысл,
импликация,
коммуникатив,
пресуппозиция,
скрытый смысл,
пропозиция,
фонопрагматика.

АННОТАЦИЯ

В статье рассмотрена природа тагмана, его уникальность и виды. Определены его общие и индивидуальные характеристики.

¹ Basic doctoral student, Kokand State Pedagogical Institute.

KIRISH

Tagma'no tilshunoslikdagi dolzarb mavzulardan biri bo'lib, kommunikantlarning aniq yoki bilvosita muloqot qilish zarurati bilan bog'liq, turli ma'lumotlarni samarali yetkazish va suhbatdoshga ta'sir qilish uchun ishlatiladi. Tagma'no tagbilim, atamasi bilan ham yuritiladi. A. Beketova [1], L.A. Galyakova [2], A.M. Erochina [3], L.V. Martinenko [4] tadqiqotlarida tagma'no tahlili va talqinini ko'rishimiz mumkin. Shuningdek, tagma'noning lingvistik nazariyasi T.I. Silman tomonidan tadqiq etildi. "Tagma'no bu hodisa bo'lib, uning tabiati lingvistik darajalarning o'zgarishi va o'zaro ta'siriga asoslanadi." [5.89].

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Olimlar tagma'no hodisasini implikatsiya, presuppozitsiya, konnotatsiya va boshqalar bilan bog'laydilar. Ushbu tushunchalarni bir-biriga bog'liq deb hisoblab ularni farqlashga e'tiborni qaratdilar. Tilshunos V.A. Kuxarenko tagma'no va implikatsiya bir-biridan farq qilmasligini ta'kidlaydi. "Tagma'no (implikatsiya) bu matnni keskin o'sishiga va chuqurlashishiga, shuningdek, tejamkorlik tamoyiliga asoslanib, uning semantik va hissiy-psixologik mazmunining o'zgarishiga olib keladigan, matnni tartibga solish usuli." [6.181]. Yana bir qator olimlar ushbu tushunchalarni nomoyon bo'lish ko'lamini, matnning butun tuzilishi va uning qismlari bilan bog'lash bilan farqlaydilar. E.I. Lelis quyidagicha ta'rifni keltiradi: "Implikatsiya rematik va o'zgaruvchan emas, tagma'no rematik bo'lib o'quvchi uchun yangi bo'lgan ma'lumotlarni o'z ichiga oladi. Shuning uchun ko'p qiymatli va o'zgaruvchandir. Implikatsiya bir qancha matnlar uchun umumiy ma'lumotlar bo'lishi mumkin. Tagma'no noyobdir." [7.146]. Bizning fikrimizcha, bu tushunchalarni turlicha talqin qilish mumkin. Ularning o'zaro bog'liqligi aniq, matnda implikatsiya va tagma'noni aks ettirish tabiati aloqa sohasining o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqqan holda har xil bo'lishi mumkin. Tagma'no nutq ishtirokchilari tomonidan ochiq shaklda ifoda etib bo'lmaydigan matn ostidagi ichki yashirin fikr hisoblanadi. "Yig'iq verbal shakl vositasida bayon qilingan yashirin kommunikativ niyat. Podtekst yashirin mazmunning komponentlari sanaladi. Tagma'no tushunchasi semiologik hodisa hisoblanib, u matnning ichki semantik strukturasi ishtirok etadi. Tagma'no implikativ mazmunning asosiy ko'rinishlaridan biri hisoblanadi [8.46]. Ko'pincha, oshkora bayon qilinmagan, ammo so'zlovchi ichki maqsadi aks etgan yashirin mazmun ko'rinishlarini matn mazmuniy strukturasi ilg'ab olish tinglovchi, nutq ishtirokchilariga katta mas'uliyat yuklaydi. Butun boshli gapning, hatto kichik bir matnning ko'chma ma'noda qo'llanishi tagma'no hisoblanadi.

Professor U. Rahimov "podtekst" so'zi ostida tushunilayotgan "tagma'no"ning yuzaga chiqishi uchun quyidagi ikki xususiyat bo'lishi shart ekanligini ta'kidlab o'tadi:

1) Nutqiy vaziyat.

2) So'zlovchi va tinglovchi o'rtasidagi sirli sulh [9.31].

Tagma'no ham presuppozitsiya kabi pragmatikaning xususiy masalalaridan biri hisoblanadi. "Tagma'no matnning bevosita mazmuniga muvofiq kelmaydigan, kontekst doirasida va muloqot subyektlariga ma'lum bo'lgan muayyan shart asosidagina voqe bo'luvchi ma'no" sifatida talqin etiladi [10.300]. L.A. Golyakov esa badiiy asar semantik tuzilishining eng muhim tarkibiy qismi sifatida baholaydi. Tagma'no propozitsiya orqali ishora qilinuvchi hukm ichidagi hukmdir. Ya'ni sodda til bilan aytganda, tagdor qilib gapirish. O'zbek tilshunosligida M. Hakimov pragmalingvistikaning nazariy masalalariga bag'ishlangan tadqiqotlarida tagma'no tadqiqiga ham alohida to'xtalib o'tadi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Biz ishimiz davomida muloqot jarayonida ifodalangan tagma'noning turli ko'rinishlarini tahlil qilamiz. Tagma'noning muhim xususiyatlaridan biri ifodaning yashirin holatda bo'lishidir. Bunda ishora qiluvchi vosita ishtirok etadi. Mana shu ishora vositasining muhim belgilariga qarab tagma'no oydinlashadi. Tagma'noning bunday ko'rinishlari so'zlovchi tinglovchini ma'lum predmatlarga o'xshatish asosida o'zi nazarda tutgan axborot ko'rinishiga ishora qiladi. Yashirin aytilishi lozim bo'lgan fikrdan kamida bir kishi xabardor bo'ladi. Tagma'noning ifodalanish subyektini matn propozitsiyasi sanaladi. Propozitsiya esa gapni faollashtiruvchi birliklar orqali ifodalanadi. Ko'plab tadqiqotchilar tagma'noni ko'rib chiqishda adresat rolini hisobga olish zarurligini ta'kidlaydilar. Har qanday matnni talqin qilish adresat faoliyatining subyektiv omillari bilan bog'liq, uning tezaurusi, ijtimoiy tajribasi, yoshi, nutq madaniyati darajasi, maqsadi, mavjud vaziyat va boshqalar. Tinglovchining ma'lumot tezaurusi shuningdek, matnni sharhlash uchun tegishli tagma'no bilan bog'liq bo'lgan asosiy bilimlarni o'z ichiga oladi. Tagma'no ham "Bilishning umumiy fondi" asosida aniqlanadi, biroq u presuppozitsiya singari propozitsiya ta'sirida emas, balki so'zlashuvchilar tomonidan avval sodir etilgan harakat, faoliyatga yoki kelgusida yuz berishi mumkin bo'lgan nomatniy ma'nolarga ishora qiladi" [11.117]. So'zlovchi tomonidan bayon qilingan axborotning yashirin shaklda berilishi so'zlovchi vaziyatiga, buni his qilish va ilg'ab olish esa tinglovchining individual ruhiy holati bilan bog'liq hisoblanadi. Rus tilshunosligida tagma'no atamasi "podtekst" nomi bilan yuritiladi. Prof. M. Hakimov podtekst "matn ichidagi yashirin matn" ekanligini ta'kidlaydi. "Podtekst atamasi matn, kontekst, va nutq atamalari ifodalagan tushunchalar mazmuni bilan bog'lana olmaydi, ularning variant sifatida ham qo'llanmaydi. Bu hodisa kommunikatsiya ishtirokchilarining nutqiy faoliyati, individual uslubi va shaxsning ichki his-tuyg'usi bilan uzviy bog'liqdir. Yashirin matn tushunchasini aniq anglash va to'g'ri tushunish uchun maqsadida biz uni "tagma'no" atamasi bilan nomlaymiz. Tagma'no yashirin ifoda birliklaridan biri bo'lib, u o'zining yuqoridagi belgi-xususiyatlari bilan lingvistik pragmatikaning markaziy masalalaridan biri deb qaraladi. [11.73]. Tagma'no gap orqali ifodalangan, gapning zamirida yotgan ko'chma ma'nodir.

Sizga o'xshagan tulki odamni ko'rmaganman. Keltirilgan misolda tagma'no ifodalangan bo'lib, og'zaki nutqdan olingan. Dialogik nutq shakli. Tulki ayyorlik timsoli bo'lib, dugonasidan pand yeganligiga nisbat berilyapti. Shuning uchun yolg'onchi makkora insonlarga nisbatan motiv qilib olingan.

Tagma'no shakllari lingvistik pragmatika yo'nalishining asosiy mavzularidan biri hisoblanadi. Tagma'no o'zining turli ko'rinishlari bilan xarakterlanib, tarkibida piching, kinoya, kesatq kabi tushunchalarni ham qamrab oladi.

"Tagma'no doimo subyekt-obyekt, so'zlovchi-tinglovchi o'rtasidagi munosabatida namoyon bo'ladi." [11.76]. Fikrni tagma'no asosida berish katta ahamiyatga ega hisoblanadi. U so'zlovchining kommunikativ maqsadini berishda muhim o'rin tutadi. Tagma'no so'zlovchining kommunikativ maqsadini amalga oshirib, nutq ishtirokchilaridan birortasini kelgusi nutq vaziyatidan ogohlantiradi.

"Tagma'no o'zining semantik strukturasida xabar qilish va nomlash funksiyasini bajarishga ko'ra ikkiga bo'linadi.

- 1) Kommunikativ tagma'no;
- 2) Referensial tagma'no. [11.98].

So'zlovchi va tinlovchi o'rtasidagi ichki pragmatik maqsad asosida vujudga keladigan, har biriga tegishli bo'lgan ifodalar kommunikativ tagma'no deyiladi. – Bu sizga tegishli xatmi? – Sizniki bo'lganda meni stolimda turar edimi? Ya'ni bu senga tegishli emas degan ma'no anglashilyapti.

Referensial tagma'noda esa so'zlovchining yashirin maqsadi turli ishora belgilar orqali bayon qilinadi. Masalan, “– Keling, shu shopir bolani xafa qilmang! Yo'lini mana o'zim o'rgataman. Hali shu hovlida to'rt-besh parandaga ko'zim tushgan edi... Sovhoznikiga qiynalsangiz, mayli, shu uyning egasiga sekin... Ma'qulmi? Xo'rozi shart emas. Makiyon ham shopir bolaga bo'laveradi. Shunday qiling, uka!” (O'zbekiston adabiyoti va san'ati. 1992. 10-son) Ya'ni bu yerda shopir bolaning o'ta bo'shashganligiga ishora tarzida berilyapti.

N.V. Pushkareva hissiy va an'anaviy tagma'no turlarini farqlaydi, birinchisi hissiy fon yaratadi, ikkinchisi esa harakat sharoitlarini aniqlashini ta'kidlagan. [12.10] Budnichenko jurnalistik nutqdagi tagma'noning o'ziga xos ekanligini o'rganadi. [13.265] S.G. Korkonosenko ijodiy faoliyat turi sifatida tahlilga tortadi. “...muloqot yuritish mavzusining ijtimoiy dolzarbligi, mafkuraviy keskinlik, shaklning yorqinligi, va jamoatchilik fikri, his-tuyg'ulari va odamlarning xatti-harakatlariga ta'sir qilish niyati bilan tavsiflangan ijodiy faoliyat turi.” [14.226].

Bundan tashqari matndagi tagma'no o'zining yuzaga chiqishidagi belgi-xususiyatlariga qarab bir necha turlarga bo'linadi.

Matnda tagma'no ifodalashning muhim ko'rinishlaridan biri fonogrammatik tagma'no bo'lib, “...so'zlovchining talaffuz ohangi bilan bog'liq bo'ladi. ... matn tarkibidagi propozitsional akt elementlari o'ziga xos ohangda – emfatik usulda talaffuz qilinadi. ...matnning umumiy mazmuni ikkinchi planga o'tadi. So'zlovchi talaffuziga xos fonopragmatik ohang usuli – birinchi darajali ma'no usuli...” [15.45]. Masalan, “Qiz o'g'irlash... Qo'limdan kelarmikin? – yigit o'ylanib qoldi. Bo'shashmang o'g'lim, bo'shashmang. Teshavoy akani xotirasi hecham aldamagan edi. Qarshisidagi yigitga rostdan ham o'zi qiz o'g'irlash haqida maslahat bergan edi. U bir zum jimib qoldi-da dedi: Eh, shayton bola. Bu senmidin.” (O'zbekiston adabiyoti va san'ati. 1992. 9-son.)

Keltirilgan misollarda ovoz tembri nutqiy muloqotda so'zlashuvchilarning har biriga xos differensial bo'yoqni ta'minlash uchun xizmat qilganligini ko'rish mumkin. Birida asar qahramonining kuchli hayajoni, boshqasida madad berishi, yana birida esa afsuslanish kabi ma'nolar ifodalangan bo'lib, ular qahramon nutqining turli holatdagi fonopragmatik tagma'nosini ochib berishga qaratilganligi bilan muhim ahamiyat kasb etadi.

“Individual tagma'no ko'rinishlari faqat ba'zi shaxslargagina xos bo'lib, bunday tagma'nolar ularning xarakterini ochish uchun xizmat qiladi. ...Individual tagma'noning ba'zi ko'rinishlari so'zlovchi yoki tinglovchining xakteri bilan uzviy bog'liq bo'lib, tinglovchining nima demoqchi ekanligi, uning qanday so'z bilan munosabat bildirishi vositasida anglanadi”. [11.82] Misol tariqasida quyidagi parchani ko'raylik, “Shu payt dahliz tomondan shovur-shovur eshitildi. Lahza o'tmay eshik ochilib, mezbanning boshi ko'rindi.

– Direktor bova... Sizni bir mehmon...G'olibov jahl bilan biqinidan bolishni olib chetga otdi.

– Men nima deb buyurgan edim...” (O'zbekiston adabiyoti va san'ati. 1992. 10-son).

Odatda, tagma'ning monologik nutq tipiga xos ko'rinishida "kinoya, piching, kesatiq mazmuni bayon qilinadi va bunda so'zlovchining ichki maqsadi aniq sezilib turadi." [11.82] Masalan, "Qiyomat bo'lsa, biz nima qilishimiz kerak, mullaka? – tavoze bilan bosh egdi O'ktam. – Shuni so'ragani keluvdik, – dedi zorlanib Azimboy O'ktamjonning dasturxonga yumalab tushgan do'ppisini olib yoniga qo'yarkan. – Tavba qilasizlar, bo'tam, tavbadan boshqa yo'l yo'q, -dedi mezbon qo'ynidan tasbeh chiqarib. A-xa "Jigar" "bo'tam"ga aylandimi, demak, masala jiddiy deyavering. Ichkaridan yana folbinning ovozi eshitildi.: – Birovlardan qarzlaring bo'lsa, hoziroq to'lab qo'yinglar, ho'pmi! Azimboyga chekingani joy qolmadi. O'zini qo'lga olib, yasama hayrat bilan "ishshi! "deb gap uladi. (O'zbekiston adabiyoti va san'ati. 1992.) Ushbu matn tarkibida monologik tagma'no aks etgan bo'lib, senga ham tegishli degan ma'noda kesatiq ohang bilan aytilgan.

"Ekspressiv tagma'no ko'rinishlarida so'zlovchi nazarda tutgan niyatga uning his-tuyg'ulari ham qo'shiladi. So'zlovchi propozitsional akti sodir etar ekan, o'zi qilgan ishlardan g'ururlanish, maqtanish ottenkalari aks etgan yashirin mazmunni propozitsion akt orqali bayon qilinadi." [11.83] Misol uchun, "Birozdan so'ng G'olibov mehmonxonada biqinini bolishga bergancha yonboshlab yotar, chiroyi andak ochilgandi: "Xa, endi katta xo'jalikda kamchilik bo'ladi-da, –achchiq choyni bosib-bosib siqararkan, G'olibov o'ziga – o'zi tasalli berdi. – Ijroqo'm bo'lgach so'kadi-da! O'zing ham anoyilardan emassan. Qo'rs-qo'pollikda seni oldinga tushadigani yo'q." (O'zbekiston adabiyoti va san'ati. 1992.) Ushbu matnda so'zlovchining maqtanish yoki g'ururlanish ohangi aks etgan yashirin mazmunni propozitsional akt orqali bayon qilyapti.

Uslubiy tagma'noda esa undash akti asosiy o'rinni egallaydi. So'zlovchi tomonidan undash akti vositasi bilan talab qilingan ma'lum axborot ko'rinishi so'zlovchi nazarda tutgan holda ifodalanadi. Masalan,

"Obbo, g'ijindi G'olibov yuzini ters burarkan, shundan bekor gap ochdim. Endi, bu ezma yarim soat shopirini maqtaydi."

– Bizning shopir shustriymas, mabodo "tuya ko'rdingmi?" deb so'rasangiz, "Yo'g'e tulki edi-yu" deb turadigan xilidan . Shunaqa... Shu shopirimni shaxsan xotinimni o'zi tavsiya etgan.

– Hmm-m... – G'oyibov zo'rlab iljaydi. – Hali xotinimni qarindoshi desangiz-chi? Ana gap qayoqda... – Shopirimiz xotinga qarindosh. Qarindosh bo'lgandayam... Umuman xotin urug'ining ichida menga yoqadigani mana shu bola... Boshqa hamma qarindoshlar palag'da... – Iiyee, iyee... Ana palovxon to'ra ham kelib qoldi-ku. Yashasin!!!" (O'zbekiston adabiyoti va san'ati. 1992.) Ushbu matndagi uslubiy tagma'no ko'rinishida so'zlovchi o'z ichki maqsadini boshqa uslubiy shaklda ifoda etgan. Ya'ni bu yerda keltirilgan uslubiy tagma'no ovozingni o'chir yoki gapingni to'xtat mazmunidan iborat.

Metaforik tagma'no asosan so'zlovchining ichki niyati bilan bog'liq bo'lib, tinglovchiga ta'sir etish maqsadida yangi nutq jarayonini yuzaga chiqaradi. So'zlovchi tinglovchini ma'lum bir predmetlarga o'xshatishi asosidagi ma'lum bir fikrni berish bilan amalga oshiradi. Yuqoridagi jumlaning izohlash maqsadida quyidagi misolni ko'rib chiqamiz.

– Shopiringizga muncha mehribon bo'lmasangiz-a! Ehtiyot bo'ling, echki semirsa, egasini suzadi! Abdulaxatov kemirib qip-yalang'och qilgan suyagini dasturxonga urib qoqarkan, bosh chayqadi.

– Echki bo'lsa suzadi-da! Bizdi shopir bola qo'y. (O'zbekiston adabiyoti va san'ati. 1992.) Ushbu matn metaforik tagma'ning yaqqol namunasi hisoblanadi. Shopirning qo'ydek yuvosh ekanligiga ishora qilinyapti.

Tagm'ning monologik akt kabi turi ham mavjud. Shunday vaziyatlar bo'ladiki, so'zlovchi o'zi istagan tagma'noni to'g'ridan to'g'ri ayta olmaydi. Bunga tinglovchining mavqeyi yo'l qo'ymaydi.

XULOSA

Tagma'no matn semantikasini kengaytirib, matn tarkibida idrok qilinadigan, ammo nutqda o'ziga xos belgilarga ega bo'lmaydigan, so'zning to'g'ridan to'g'ri ma'nosiga asoslanib kontekstda shakllanadigan tushuncha, kommunikantlarning ichki maqsadini ifodalagan yashirin mazmun sifatida lingvistik pragmatika masalalari mohiyatini oydinlashuvida muhim o'rin tutadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Бекетова Е.А. Подтекст и субъективная авторская модальность как способы выражения аргументации в художественном тексте // Вопросы гуманитарных наук. 2007. № 4 (31). С. 84-87.
2. Голякова Л.А. Подтекст: прагматические параметры художественной коммуникации // Филологические науки. 2006. № 4. С. 61-69.
3. Ерохина А.М. Подтекст как языковое явление художественного текста: уровни подтекста // Современные лингвистические и методико-дидактические исследования. 2018. № 4 (40). С. 129-139.
4. Мартыненко Л.В. Подтекст как часть прагматической структуры текста // Приоритетные научные направления: от теории к практике. 2016. № 32-2. С. 28-33.
5. Сильман Т.И. Подтекст как лингвистическое явление // НДВШ. ФН. 1969. №1.
6. Кухаренко В.А. Интерпретация текста. М. : Просвещение, 1988. 192 с
7. Лелис Е.И. Подтекст и смежные явления // Вестник Удмуртского университета. Серия: История и филология. 2011. Вып 4. С. 143-151. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/podtekst-i-smezhnye-yavleniya> (дата обращения: 27.09.2020).
8. Toirova G. Pragmalingvistika o'quv lug'ati. Toshkent. 2016., 46-bet.
9. U.Rahimov, Tagma'no va presuppozitsiya. O'zbek tili va adabiyoti. 2005. 5-son. 31-bet
10. Dilmurod Qur'onov. Adabiyotshunoslik terminlari lug'ati.
11. Ҳакимов М. Ўзбек прагмалингвистикаси асослари. – Тошкент, 2013
12. Pushkareva, N.V. (2012) Subtext as the way to deepen prosaic text sense perspective. Mir russkogo slova – The World of Russian Word. 3. pp. 73-79. [Online] Available from: <https://cyber-leninka.ru/article/n/podtekst-kak-sredstvo-uglubleniya-smyslovoy-perspektivyprozai-cheskogo-teksta> (Accessed: 27.09.2020). (In Russian).
13. Budnichenko, L.A. (2012) Subtext in Mass-Media Discourses. Vestnik Chuvashskogo universiteta – Chuvash University Bulletin. 2. pp. 260-266. [Online] Available from: <https://cyberleninka.ru/article/n/podtekst-v-publitsisticheskom-diskurse> (Accessed: 27.09.2020). (In Russian)
14. Korkonosenko, S.G. (2018) Publitsistika [Opinion journalism]. In: Duskaeva, L.R. (ed.) Medialingvistika v terminakh i ponyatiyakh: slovar'-spravochnik [Medialinguistics in Terms and Concepts: Reference Dictionary]. Moscow: FLINTA. pp. 226-228
15. Primov A., X.Qodirova Tilshunoslikning dolzarb muammolari. –Urganch, 2019.45-bet